

JISMONIY TARBIYA VA SPORT IXTISOSLIGIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI (SPORT TERMINLARI MISOLIDA)

Sabirova Zebo¹

¹Chirchiq iqtisodiyot va pedagogika instituti, Chirchiq shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport ixtisosligida tahsil oluvchi imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik xususiyatlarini mashg'ulot jarayonida turli xil sport atamaları, jestlar orqali ingliz tilini o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: lingvodidaktik, parasport, jest, kompetensiya, atama, didaktik, kasbiy, concordance – TACT.

Kirish

Dunyo miqyosida xorijiy tillarni, xususan, xalqaro muloqotda yetakchi vosita hisoblangan ingliz tilini o'rganish amaliyotiga innovatsion yondashuvlar, til o'rganuvchilarning ehtiyojlariga mos rivojlantiruvchi, ta'lim klasteri muhitida ingliz tili o'qitish jarayonida imkoniyati cheklangan talabalarni kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini takomillashtirishga qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalarni sport musobaqalarida shaxsga yo'naltirilgan hamda aralash ta'lim texnologiyalari asosida parasport turlariga oid atama va tushunchalarni o'rgatish asoslari tatbiq etilmoqda. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarga ingliz tilini o'rgatishda va qisqa vaqt davomida nutqni tezkor o'stirish metodikasini takomillashtirish talabi qo'yilmoqda. Bu esa xalqaro sport arenalarda yurtimiz sharafini munosib ishtirok etib kelayotgan paralimpiyachilarni kasbiy kompetentligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida, oliy ta'lim tizimining vazifalari, konseptual qoidalari, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalari uchun ingliz tili dars mazmuni va o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish tuzilishi o'zgarib bormoqda. "Mamlakatimizda har

yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida chet tillarini yoshlarga o'rgatish" yuzasidan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan parasportchilarni mashg'ulot jarayonlarini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda maxsus pedagogika, adaptiv jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan muassasalari bitiruvchilarining kasbiy kompetentligi qo'yilgan talablarni bajarish ya'ni, bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy sport bo'yicha kadrlarni tayyorlash, ingliz tillarini o'rgatish bo'yicha ilmiy - tadqiqotlar olib borish hamda til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirishning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilgan. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy oshirish hozirda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi

PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021 yil 18-maydagi PF 5114 son "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

11-avgustdagi 610-son "Chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son "Oliy malakali ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba, pedagogik kuzatish, pedagogik testlash, instrumental (Tenzo platformasi) usuli, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tili darslarida parasport yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash;

jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalar uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

imkoniyati cheklangan talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan sportchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun parasport turlari atamalarini ovozli va jestlar orqali o'rgatish uslubiyatini ishlab chiqish;

eshitish qobiliyatida nuqsoni bor sportchi-talabalarining o'qish va yozishga yo'naltirilgan lingvodidaktik muhit yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini o'zaro manfaatli ta'sirini mashg'ulotlar jarayonida talabalarga ingliz tili mashg'ulot mazmunini sport amaliyotiga bog'liq holda olib borish hisobiga parasport mutaxassislarini tayyorlash imkoniyati kengaytirilgan;

jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalar uchun to'rt bosqichli (maqsadi, mazmuni, jarayoni va baholash) kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini didaktik ma'lumotlar, AKT va dasturiy "Concordance-TACT" vositalar orqali takomillashtirish hisobiga talabalarda ingliz tili atamalarini qisqa vaqt davomida o'zlashtirish imkoniyatlari oshirilgan;

imkoniyati cheklangan talabalarining ta'lim klasteri muhitida ingliz tilini o'qitish jarayonida ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan sportchilar uchun eshitish (listen) va gapirish (speaking) usullari orqali mashg'ulotlarni olib borish hisobiga kasbiy bilimlarni differensial integratsiyasini ta'minlash imkoniyatlari oshirilgan;

eshitish qobiliyatida nuqsoni bor sportchi-talabalar uchun kasbiy-amaliy mashg'ulotlarida o'quv motivi, o'zlashtirishlari, bilim darajasi (kognitiv) hamda qaytar aloqani ta'minlash reflektiv bosqichlarida o'qish (reading) va yozish (writing) usullari orqali mashg'ulotlarni takomillashtirish hisobiga o'qish va yozishga yo'naltirilgan lingvodidaktik muhitni yaratish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Natijalar va muhokama

Hozirgi globallashtirish davrida insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashi uchun turli sport turlari bilan shug'ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash bilan bir qatorda bir nechta sport atamalarini jestlar orqali muloqot qila olishlari talab etilmoqda. Zero, parasport turlari bilan shug'ullanuvchilarga so'z

metodlari va jestlardan foydalanish tizimini zamonaviy metodlar asosida takomillashtirish, imo-ishorani o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, pedagogik va murabbiylik sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash muammosini konseptual qoidalarni ishlab chiqish masalalari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi kunda yurtimiz parasportchilarini xalqaro arenalarda ishtirokini hisobga olgan holda ingliz tilini bilish darajasini yaxshilash, sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash sifatini oshirishning shart-sharoitlarni yaratish, bu bo'yicha ta'lim subyektlari bilan hamkorlikni o'rnatish hamda oliy ta'lim muassasining darajasini namunalni bosqichga chiqarish, ularga kasbiy-amaliy mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish, mashg'ulot jarayonida imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari kasbiy tayyorgarlikning lingvodidaktik muhitini yaratish, takomillashtirish muhim vazifalar qatorida belgilandi.

Yuqoridagi qo'yilayotgan talabalar nafaqat pedagoglar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalariga balki, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ham bevosita aloqador hisoblanadi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning klister texnologiyalaridan foydalanish ham asosiy komponentlaridan hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning amalga oshirilishi ta'lim klasteri infratuzilmasi, bilim olish motivatsiyasi va ko'nikmasi shakllanishiga, shuningdek, kasbiy-amaliy kompetentlik, parasport bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga asos bo'ladi. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining o'zaro manfaatli ta'sir muhitining yaratilishi imkoniyati cheklangan talabalarni kasbiy-sport faoliyatiga maqsadli yo'naltirish, o'quv rejasi asosida belgilangan fanlarning ta'lim mazmunini amaliyotga bog'lash orqali ta'lim klasteri muhitini ta'minlash imkonini beradi.

Kasbiy-amaliy mashg'ulotlar jarayonida imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy tayyorgarlikning reflektiv bosqichlarini tinglash, o'qish, yozish, gapirishga yo'naltirilgan lingvodidaktik muhitni yaratish, so'z metodi va jestlarni hamohanglikda o'rganishdagi shaxsiy munosabati va faoliyat predmeti, muayyan kasbiy vaziyatlarda har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, faoliyatga tayyorligi bilan ifoda qilingan shaxsiy-ijodiy sifatlarining integratsiyalashgan, lingvodidaktik muhitga differensial integratsiyani ta'minlashning nazariy asoslari ishlab chiqildi.

T/r	Ko'rish qobiliyatida aniqsoni borlar				Eshitish qobiliyatida aniqsoni borlar			
	Maxsus mashg'ulot	Takrorlash soni	Bajarish tezligi	Ingliz atama	Maxsus mashg'ulot	Takrorlash soni	Bajarish tezligi	Ingliz atamasi
1	D.H. Yuqori startdan oyoq uzatishni o'rganish (oyogga qo'ng'urak harakatlanish)	5x10metr	YuQS 150-160 zarfdaq	Split	Tizilarni beland ko'tarib yugurish	2x30 m	YuQS 110-120 zarfdaq	 oyogga oldinga Chapdan o'tsa - o'ngdan chapga
2	D.H. Turgan joyda yugurish, (yugurish tezligida bajarish)	3x10s	YuQS 160-170 zarfdaq	Starting blocks	Tizilarni oyogga siltab yugurish	2x30 m	YuQS 110-120 zarfdaq	 Left-right Right-left
3	D.H. Turgan joydan 3 va 5 harakatlanish	6x15 s	YuQS 120-130 zarfdaq	Blind Pass Fake Start	Oyoqdan - oyoqqa siltab yugurish	2x30 m	YuQS 120-130 zarfdaq	 Pustiga
4	D.H. Turgan joyda oyoq uzatish sakrash	5x20m	YuQS 130-140 zarfdaq	PB Personal Best PR Personal Record	Star oldi teslab yugurish	2x30 m	YuQS 150-170 zarfdaq	 Tebaza
1	Suzish tashchilarni qo'llarni oldinga uzatgan holda ushlab, bosim berish, tushurmadan, oyoqlarni ko'krakda kross usulida harakatlanib suzish	4x50 m	YuQS 130-140 zarfdaq	Freestyle	Suzish tashchilarni kullarni oldinga uzatgan holda ushlab, bosim berish, tushurmadan, oyoqlarni kullarida kross usulida harakatlanib suzish	4x50 m	YuQS 130-140 zarfdaq	 Ko'rsatilgan usulga That point
	Suzish tashchilarni qo'llarni oldinga uzatgan holda ushlab, oyoqlarni ko'krakda kross usulida harakatlanib, 3 ta oyoq harakatida i	4x50 m	YuQS 140-150 zarfdaq	Butterfly	Suzish tashchilarni qo'llarni oldinga uzatgan holda ushlab, oyoqlarni ko'krakda kross usulida harakatlanib, 3 ta oyoq harakatida i	4x50 m	YuQS 140-150 zarfdaq	 Yordam ishorasi
1	Raqibni oldidan chabib tashlash (ty-ochoq)	30 soniya, 3 marta	YuQS 150-160 zarfdaq	Clap	6) jugat bilan usulga kirib chiqishga tegid.	30 soniya daromida bajarish 5 marta	YuQS 160-180 zarfdaq	
	Shenklarni oyoq bilan idki oyoqdan ko'tarib ulog'itirish (sazry-groba)	30 soniya, 3 marta	YuQS 150-170 zarfdaq	Squate	Raqibni o'ylada ko'tarib yarim o'tirib turish	10 ta dan 5 marta	YuQS 140-150 zarfdaq	 Shifokorni chaqirish O'midan turish
	Oyoqlar orasidan oyoqlar bilan ko'tarib ulog'itirish (sazlo-mane)	30 soniya, 3 marta	YuQS 150-160 zarfdaq	Right/ wrong	Kross yugurish	Hafsla bir kun 3-5-8 km	YuQS 120-130 zarfdaq	 Cho'kish harakati Feniati tayinlash

Xulosa

Ta'lim klasteri muhitida imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari ingliz tilini o'qitish jarayonida ularning motivatsion, kognitiv, reflektiv bosqichlarini samarali tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tinglash, o'qish, yozish, gapirishga yo'naltirilgan lingvodidaktik muhitni yaratish, jismoniy va aqliy faoliyat integratsiyasi asosida jarayonni tabaqalashtirish muhimligi aniqlandi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini o'zaro manfaatli ta'sirini mashg'ulotlar jarayonida talabalarga ingliz tili mashg'ulot mazmunini sport amaliyotiga bog'liq holda olib borishda parasport mutaxassislarini tayyorlashda ingliz tili atamalarini qisqa vaqtda o'rganishga erishildi.

Kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan korreksion-kompensatsion jarayonga ko'gazmali, vizual takrorlash orqali singdirishda imkoniyati cheklangan talabalarining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirildi. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi imkoniyati cheklangan talabalar uchun to'rt

bosqichli (maqsadi, mazmuni, jarayoni va baholash) kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelini didaktik ma'lumotlar, AKT va dasturiy "Concordance-TACT" vositalar orqali takomillashtirildi hamda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda ingliz tili atamalarini qisqa vaqt davomida o'zlashtirishdi.

Imkoniyati cheklangan talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik klaster mexanizmlari individuallik, tizimlilik kabi til muhiti tamoyillarini amaliyotga joriy etilish, kasbiy keyslarni sotsiolingvistik o'quv topshiriqlari asosida semantik optimallashtirish imkonini berdi. Imkoniyati cheklangan talabalarining ta'lim klasteri muhitida ingliz tilini o'qitish jarayonida ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan sportchilar uchun eshitish (listen) va gapirish (speaking) usullari orqali mashg'ulotlarni olib borish bilan birga kasbiy bilimlarni diffensial integratsiyasi ta'minlandi.

Linguodidactic features of developing professional competence of students with disabilities in physical education and sports (on the example of sports terms)

Sabirova Zebo¹

¹Chirchik Institute of Economics and Pedagogy, Chirchik, Republic of Uzbekistan.

Abstract. This article provides recommendations on linguodidactic features of developing professional competence of students with disabilities studying in the specialty of physical education and sports, teaching English through various sports terms, gestures in the learning process.

Keywords: linguodidactic, parasport, gesture, competence, term, didactic, professional, concordance - TACT.

Лингводидактические особенности развития профессиональной компетенции студентов с ограниченными возможностями по физической культуре и спорту (на примере спортивных терминов)

Сабирова Зебо¹

¹Чирчикский институт экономики и педагогики, г. Чирчик, Республика Узбекистан.

Аннотация. В данной статье даны рекомендации по лингводидактическим особенностям развития профессиональной компетенции студентов с ограниченными возможностями здоровья, обучающихся по специальности физическая культура и спорт, обучению английскому языку посредством различных спортивных терминов, жестов в процессе обучения.

Ключевые слова: лингводидактический, параспорт, жест, компетенция, термин, дидактический, профессиональный, concordance - TACT.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 1- dekabrda PF - 5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 maydagi PQ-5114-son "Paralimpiya harakatini rivojlantirish"ga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori

4. Ismailova Z.K., Muqimov B.R. The Use of Innovation Technologies in the Formation of Students' Professional Competences // International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). – Hindiston, 2019. – № 9. – P. 6907-6911.

5. Muqimov B.R. Forming Communicative Competence of Technical Higher Education Institution Students by Innovative Means // Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2019. – № 4. – P. 409-412.

6. Muqimov B.R. Kasb ta'limi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning o'rni va ahamiyati // Kasb-hunar ta'limi. – T., 2016. – № 4. – B. 20-27.